

Shaxloxon Davlatova

Namangan davlat universiteti
“San’atshunoslik” kafedrası o‘qituvchisi
E-mail: atribut-85@mail.ru

O‘ZBEK XALQ QO‘SHIQLARI TASNIFI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o‘zbek milliy madaniyatining ajralmas qismi bo‘lgan o‘zbek xalq qo‘shiqlarining ijtimoiy-madaniy hayotdagi ahamiyati, uning o‘ziga xos belgilari, o‘zbek xalq qo‘shiqlari borasidagi nazariy qarashlar asosida ularning turlari bo‘yicha tasniflanishi atroflicha tahlil etilgan.*

Kalit so‘zlar: *madaniyat, milliy identiklik, xalq qo‘shiqlari, ijtimoiy hayot, urf-odat, an‘ana, marosim, qadriyat, mehnat qo‘shiqlari, marosim qo‘shiqlari.*

CLASSIFICATION OF UZBEKISTAN FOLK SONGS

Abstract. *This article provides a comprehensive analysis of the significance of Uzbek folk songs as an integral component of national culture within socio-cultural life. It examines their distinctive characteristics and offers a systematic classification of their types based on theoretical perspectives concerning Uzbek folk songs.*

Keywords: *culture, national identity, folk songs, social life, customs, traditions, rituals, values, work songs, ritual songs.*

O‘zbek xalq og‘zaki ijodiyoti ko‘p asrlik tarixga ega bo‘lib, uning tarkibiy qismlaridan biri sifatida xalq qo‘shiqlari o‘ziga xos estetik, ma’naviy va tarixiy qadriyatlarni mujassam etishi bilan milliy madaniyatning ajralmas qismi hisoblangan. Xalq qo‘shiqlari nafaqat badiiy ifoda vositasi, balki xalqning ruhiy olami, orzu-umid va qayg‘ularini ifodalovchi ijtimoiy-madaniy fenomen sifatida e’tirof etiladi. Ular asrlar davomida og‘zaki an’anada yashab kelgan va jamiyat hayotidagi ijtimoiy-madaniy o‘zgarishlarga mos ravishda yangilanib borgan.

Bugungi globallashuv va axborotlashtirish davrida milliy o‘zlik, madaniy meros va xalq an‘analarini asrash muhim vazifa hisoblanadi. Shu jihatdan xalq

qo'shiqlarining ilmiy-nazariy o'rganilishi, tasnifi va turlari bo'yicha tahlillarni chuqurlashtirish orqali ularning jamiyatdagi ahamiyatini aniqlash dolzarb ilmiy muammolardan biridir.

Xalq qo'shiqlari – bu xalqning og'zaki ijodi mahsuli bo'lib, musiqiy va poetik unsurlarning uyg'unlashuvi asosida vujudga kelgan, xalqning estetik qarashlarini, ijtimoiy-tarixiy tajribasini va ruhiy kechinmalarini ifoda etuvchi badiiy asarlardir. Shu o'rinda qo'shiq atamasi bilan bog'liq ayrim mulohazalarni keltirib o'tish o'rinlidir. Xalq qo'shiqlarining yetuk bilimdoni M.Alaviya qo'shiq terminining sof o'ziga xosligi va ko'p asrlar muqaddam turkiy tilda paydo bo'lganligini, hozirda xalq poeziyasi ma'nosini anglatishini aytib, atama genezisini aniqlashga juda yaqin kelgan [1, 15-b].

Mahmud Qoshg'ariyning “Devonu lug'otit turk” asarida qo'shiq so'zining arabcha she'r, qasida, rajaz ma'nolari qayd etiladi. Biroq e'tirof etish kerakki, qo'shiq turkiy xalqlar folklorida arab bosqinchiligiga qadar mavjud bo'lganidan tashqari, bu atamalarning birortasi o'zbek xalq qo'shiqlarini tabiatini, mohiyatini to'liq ifodalay olmaydi. Hozir turkiy xalqlar o'z qo'shiqlarini turlicha ataydilar. Masalan, turkmanlar, aydım, turk va ozorlar qo'shoq deb yuritadilar [2, 32-b].

Ilmiy adabiyotlarda xalq qo'shiqlari haqida turli yondashuvlar mavjud. Masalan, folklorshunos A.Qodirov xalq qo'shiqlarini “xalq musiqiy tafakkuri mahsuli sifatida mustaqil estetik hodisa” deb talqin qilgan. B.Abdullayev esa ularni “xalqning shaxsiy va ijtimoiy tuyg'ularini kuylovchi shakli” [3, 58-b] sifatida baholagan.

Xalq qo'shiqlari og'zaki ijodiy asosda yaratilgan, ko'pchilik tomonidan tan olingan va ijro etilganlik, an'anaviy shakllarda saqlangan va rivojlanganlik, milliy musiqiy va poetik urf-odatlarini ifodalaganlik kabi belgilarga ega bo'ladi.

Xalq og'zaki ijodiyoti o'z ichiga ertaklar, dostonlar, maqollar, topishmoqlar, yalla va qo'shiqlarni oladi. Ular orasida qo'shiqlar o'zining musiqiy-poetik sintezga asoslanganligi bilan alohida o'rin tutadi. Qo'shiqlar nafaqat og'zaki an'ananing bir shakli, balki musiqiy ifoda vositasi sifatida ham e'tiborni tortadi.

Folklorshunoslikda xalq qo'shiqlari lirika, epika va dramatik shakllarga yaqin turgan janr sifatida tasniflanadi. Shu bois, qo'shiqlar o'zining musiqiy shakli bilan badiiy-tasviriy vositalarni kuchaytiradi va ta'sir kuchi yuqori bo'ladi. S.Shoismatovning ta'rificha: "Xalq qo'shiqlari og'zaki poetik musiqaning o'ziga xos turi bo'lib, ular xalqning tuyg'ularini musiqiy estetik usulda jamoaga yetkazish vositasidir".

Xalq qo'shiqlari mazmun va shaklga ko'ra bir necha yondashuvlar asosida tasniflanadi. Ilmiy adabiyotlarda ushbu tasnifiy yondashuvlar mavjud:

Xalq qo'shiqlari tematik tasniflanishiga ko'ra mehnat qo'shiqlari, marosim qo'shiqlari, lirik qo'shiqlar (muhabbat, sog'inch, ayriliq), tarixiy va epik qo'shiqlar, hazil-mutoyiba va satirik qo'shiqlar, bolalar qo'shiqlari kabi turlarga ajratiladi.

O'zbek xalq qo'shiqlari ijro shakliga ko'ra yakka ijrodagi qo'shiqlar hamda jamoaviy qo'shiqlarga bo'linadi.

O'zbek xalq qo'shiqlarini vazifasiga ko'ra tasniflasak, ritmik-harakatni muvofiqlashtiruvchi, emotsional-hissiy ifodachi, tarbiyaviy-funksional va og'zaki tarixni saqlovchi kabi turlarga bo'lish mumkin.

Shu bilan birga xalq qo'shiqlari aytilish muhiti, mavsumiylik, voqea mazmuni, ijro usuli kabi mezonlar asosida ham turlarga ajratiladi. Bunday yondashuv ularni yanada aniqroq tahlil qilish imkonini beradi.

Xalq qo'shiqlari o'ziga xos poetik tuzilma va badiiy ifoda vositalariga ega. Ular quyidagi xususiyatlari bilan ajralib turadi:

Birinchidan, tuyg'ularning ifodaviyligi. Bu qo'shiqlarda inson qalbi, kayfiyati, orzu-umidlari obrazlar orqali badiiy ifodalanadi.

O'ng qabog'im uchdi-ya,

Sochim belim quchdi-ya.

Ulla-bulla shu bugun,

Og'am yodimga tushdi-ya [4, 35-b].

Ikkinchidan, tashbeh, istiora, parallelizm. Bu qo'shiqlarda ko'p hollarda tabiat manzaralari, hayvonot dunyosi, samoviy hodisalar orqali ramziy ifoda ishlatiladi.

Misol:

Oy ko'rdim – seni esladim,

Yulduz yonar – yuragim qizir.

Uchinchidan, qofiyalash va ritm. Musiqiylik va ritmik uyg'unlik qo'shiq poetikasining ajralmas qismi hisoblanadi.

To'rtinchidan, soddalik va esda qolarli obrazlar. Bu xalq qo'shiqlarida badiiy soddalik bilan chuqur falsafiy mazmun uyg'unlashgan bo'ladi.

Poetik struktura ko'pincha 2–4 misralik bandlardan iborat bo'lib, ohangga moslab takrorlanish elementlari qo'shiladi.

Mehnat faoliyati bilan bevosita bog'liq bo'lgan xalq qo'shiqlari insoniyat tarixining ilk bosqichlaridanoq shakllangan. Bu turdagi qo'shiqlar insonning mehnat paytidagi harakatiga mos ravishda yaratilgan bo'lib, ular ish jarayonini yengillashtirish, mehnatni jamoaviy tarzda tashkil etish, ruhlantirish va birlikni mustahkamlash kabi funksiyalarni bajaradi.

Mehnat bu – insonning nafaqat jismoniy, balki ruhiy zo'riqishidir. U og'ir bo'lib kishidan mashaqqat talab etadi. Ana shu mashaqqatni kuy-qo'shiqlariga solib kuylash o'zbek xalqining mahalliy aholisining o'ziga xos xususiyatlaridan biridir. Azaldan bu xalq og'ir mehnatni yengib o'tishda ruhiy tetiklik va quvvat bag'ishlovchi qo'shiqlar to'qigan va kuylagan. Xalq qo'shiqchilik ijodiyotida yuzaga kelgan mehnat aytimlari musiqashunoslikda qayd etilgan uch turga bo'linish an'anasiga muvofiq tasnif etiladi:

1. Chorvadorlik qo'shiqlari.
2. Dehqonchilik qo'shiqlari.
3. Hunarmandlik qo'shiqlari.

Qo'shiq ixcham doiradagi tersiya oralig'ida kuylanadi. "To'ray-to'ray" qo'shig'i qo'ylarni dalalarga boqish, qo'yxonaga chorlash, sog'ish, qo'zisini emdirish vaqtida aytiladi. Bu qo'shiq ohista xirgoyi xonish qilinadi. Misol, "Churey-churey" qo'shig'i echkilarni sog'ish hamda chorlash vaqtida ijro etilsa-da, uning yana bir o'ziga xosligi endigina tug'ilgan uloqni ona echki "olmas" bo'lib qolganda,

yoki ona echki ko'zi yorib, nobud bo'lganda chorvador boshqa ona echki oldiga uloqchani olib kelgan vaqtda hissiy ohangda aytiladi. Aytim ta'sirida begona ona echki uloqni o'z bolasidek emizgan holatlari kuzatilgan:

Shoxlaring bor bir minor-a, churey-churey,

Minoraga qushlar qo'nar-a, churey-churey.

Bolang olib iskasang-a, churey-churey,

Olgan shu echkim yaxshi echki, churey.

Sog'ish paytida echki qarshilik qilmay tek turib bersa, sog'uvchi uni maqtab, erkalab, ba'zan yengil hazil bilan tegajoqlik qilib qo'shiq kuylaydi:

Tikraygan qulog'i bor, churey-churey,

Chashmadek bulog'i bor, churey-churey.

Ichida egiz ulog'i bor, churey-churey,

Olgan shu echkim yaxshi echki, churey.

Echkilar yo'qolganda esa cho'ponlar tomonidan tojik tilida "Buzakam" (echkijon, echkicham) qo'shig'i horg'in kayfiyatda xirgoyi qilinadi. Bu qo'shiq echkining dikir-dikir sakrab o'ynoqiligi va yoqimtoyligini tasvirlash uchun ijod qilingan. Viloyatlarning ayrim tumanlarida chorvadorlar hayotidan olingan va ilhomlantiradigan qo'shiqlar ham mavjud. "Otboqar qo'shig'i", "Cho'pon qo'shig'i" shular jumlasidandir. Shu o'rinda chorvaga ixtisoslashgan hudud chanqovuzchilari chorvaga oid "Tuya qaytarish", "Cho'pon kuyi", "Qo'zi ma'rash", "Qo'y boqish", "Echki sakrash" chanqovuz kuy-nag'malarni ijro etayotganini ta'kidlash joiz. Shuningdek, ayollar ijrosidagi "Guppi" qo'shig'ining musiqiy ritmik ta'sirchanligining o'ziga xosligi kishi diqqatini tortadi. An'anaga ko'ra sigir suti pishirilgandan so'ng ma'lum haroratda usti yopib, uyitiladi. Qatiq holatiga kelgach, maxsus xaltalarga solinib, suvi ajratiladi va quyushgach suzmaga aylanadi. "Suzma" ayrim viloyatlarning mahalliy aholi tilida "chakki" deyiladi. Uning yog'i maxsus idish yordamida ajratib olinadi. Qo'shiq mana shu jarayonda aytiladi. Qo'shiqning ritmi "guppi pishish" – yog'ni ajratib olishda foydalanadigan dastakning harakat (go'yo avtomobil motorining porshen ishlash uslubi) tezligidan

olingan. Dehqonchilik mehnati turkumiga kiruvchi qo'shiqlar mehnat jarayonida shakllangan aytimlarning kattagina qismini tashkil etadi va umumiy nomda "Dehqonchilik qo'shiqlari" deb ataladi. Bu turkum aytimlari mamlakatimiz hududining deyarli barcha vohalarida, tumanlarida, go'shalarida uchraydi. Yer haydash mavsumi bilan bezatilgan qo'shga katta ho'kizlarni olib chiqib qo'shgan.

Qo'shchi qo'shni boshqarayotib "Qo'shchi qo'shig'i"ni aytgan. Qo'shga yordam berib boruvchilar qo'shiqqa jo'r bo'lgan. Qo'shiq kuylanish xususiyati ko'tarinki kayfiyat bilan dalda berish maylida kuylanadi. Qo'shiqning she'riy matni va ritmik tasvirlanishi qo'shga qo'shilgan ho'kizlarning bir maromda ish harakat suratini susaytirmasligiga qaratilgan. Ushbu marosim Surxondaryo, Qashqadaryo, Jizzax, Sirdaryo, Navoiy viloyatlarida yoppasiga qo'sh haydash ishlarini boshlanishini anglatgan. Ekin yerlari shudgorlangach, "Don septi" marosimi o'tkazilgan. Marosim an'anasiga binoan uni mo'l-ko'pchilik ramzi sifatida ko'p farzandli, munis onaxonlar dastlabki urug'lik bug'doyni dalaga sepib, oq fotiha berish bilan boshlagan. Shundan so'ng marosimiy "Don septi" qo'shig'i ijro etilgan. Hosil yoz yoki ilk kuz fasl oylarida yetilgach, "Arpa bug'doy pishibdi", xirmondagi somondan donni ajratib olishda esa "Mayda", "Xo'p mayda", baland tog' yonbag'ridagi dalalardan g'alla donini ot, yoki eshakka yuklab, qishloqqa olib tushishda "Havvor" kabi dehqonchilikning mashaqqatli mehnatini badiiy ifodalovchi qo'shiqlar to'qilgan va ijro etilgan.

Folklorshunos A.Qodirov mehnat qo'shiqlarini "tashkiliy-funksional qo'shiqlar" sifatida talqin qiladi, ularning asosiy xususiyati – vazifaboplikdir.

Marosim qo'shiqlari xalqning diniy, ijtimoiy va madaniy hayotida muhim o'rin tutadi. Ular turli udum va rasm-rusumlar: tug'ilish, sunnat to'y, nikoh, dafn marosimlari, hosil tantanalari, yil fasllari bilan bog'liq qadimiy e'tiqodlar jarayonida ijro etilgan. Marosim – bu ko'pincha an'ana va urf-odatning tarkibiy qismi bo'lib, asosan, rasmiy va ruhiy ko'tarinkilik vaziyatida o'tadi, o'zining umum qabul qilgan ramziy harakatlariga ega. Masalan, aqiqa – ism qo'yish marosimi, nikohdan o'tish marosimi, dafn qilish marosimi, xotirlash marosimi, ekishga kirishish (urug' qadash)

marosimi, o'ringa kirishish marosimi va hokazolar [5, 145-b]. O'zbek folklorida "Yalla", "Navro'z qo'shiqlari", "Sunnat to'y yallalari", "Kuyovga qo'shiq", "Kelin salom" kabilar marosim qo'shiqlariga kiradi. Jumladan, bahor bilan bog'liq ushbu qo'shiq an'anaviy shaklga ega:

Lola, lola, lolajon o'sar joying dalada,

Lola, lola, lolajon chidadingmu jalaga.

Jala yog'sa qo'rqmagin,

Sellar oqsa qo'rqmagin.

Chiroyingni ochay deb,

Qizlar taqsa qo'rqmagin.

Naqorat:

Lola, lola, lolajon o'sar joying dalada,

Lola, lola, lolajon chidadingmu jalaga.

Sayilimiz sho'x bo'lsin,

Dard-u alam yo'q bo'lsin.

Sen qip-qizil yashnagin,

Oqko'ngillar to'q bo'lsin.

S.Shoismatovning fikricha, marosim qo'shiqlari "xalq an'alarining musiqiy ifodasi" bo'lib, ular zamonaviylik va qadimiylik elementlarini o'zida uyg'unlashtiradi.

Folklorshunos B.Abdullayev lirik qo'shiqlarni "inson qalbining estetik hayqirig'i" deb ataydi. Ularning musiqiy uslubi odatda kuychan, lirizmga boy va chuqur ramziy ma'noga ega bo'ladi.

Xalq qo'shiqlari ijro shakliga ko'ra ham tasniflanadi:

- Yakka ijrodagi qo'shiqlar – lirik janrlarda keng tarqalgan. Soz jo'rligida ijro etiladi.
- Jamoaviy qo'shiqlar – mehnat, marosim va yalla janrlarida keng tarqalgan. Ayrim hollarda sahnalashtirilgan tarzda ijro etiladi.

Jamoaviy qo'shiqlarda ishtirokchilar ohang va ritmga qat'iy amal qilgan holda birgalikda kuylaydilar. Bu esa xalq orasidagi birdamlik, bir ruhda yashash g'oyasini mustahkamlovchi vosita hisoblanadi.

O'zbek xalq qo'shiqlari orqali xalqning tarixiy xotirasi, qadriyatlari, an'analari va orzu-umidlari avloddan-avlodga uzatiladi. Masalan, qo'shiqlar tarixiy shaxslar va voqealarni madh etish orqali tarixiy ongini mustahkamlasa, lirik qo'shiqlar shaxsiy kechinmalar orqali milliy ruhiyatni ifodalaydi. S.Shoismatovning ta'kidlashicha, "xalq qo'shiqlari – bu millatning kuylovchi xotirasidir". Ular milliy madaniyat ramzi sifatida xalq ruhiyatining ko'zgusi vazifasini bajaradi. Xalq qo'shiqlari asrlar davomida yosh avlodni tarbiyalashda muhim vosita bo'lib kelgan. Ular orqali bolaga axloqiy-me'yoriy qadriyatlar (halollik, sabr, vatanparvarlik), estetik did (go'zallikni anglash), ruhiy-milliy birlik (vatan, xalq, urf-odatga sadoqat) singdirilgan.

Xalq qo'shiqlari ijtimoiy birdamlikni ta'minlovchi kuchli madaniy vositadir. Ayniqsa, jamoaviy ijrodagi yalla, chor qo'shiqlari, to'y va rasmiy tantanalardagi kuylovlar orqali xalq o'zini yagona jamiyat sifatida his etadi. Bundan tashqari, xalq qo'shiqlari xalqlararo madaniy muloqotda ham muhim vosita bo'lgan. Turkiy xalqlar, ayniqsa, Markaziy Osiyo xalqlarida o'xshash motiv va ritmlar mavjud. Bu esa xalq qo'shiqlarining transmadaniy xususiyatidan dalolat beradi.

O'zbek xalq og'zaki ijodiyoti doirasidagi xalq qo'shiqlari xalq ruhiy hayotining, tarixiy xotirasining, estetik qarashlarining va ijtimoiy ongining musiqiy-badiiy ifodasi sifatida muhim o'rin tutadi. Xalq qo'shig'i fenomeniga nafaqat musiqiy, balki sotsiologik, psixologik va madaniy kategoriya sifatida yondashiladi. Qo'shiqlar xalqning ijtimoiy-tarixiy kechinmalari va estetik qarashlarini o'zida mujassamlashtiradi.

Xalq qo'shiqlari milliy identiklikni shakllantirish va saqlashda muhim vosita hisoblanadi. Ular orqali milliy ruhiyat, tarixiy xotira va madaniy o'zlik avloddan-avlodga o'tadi. Xalq qo'shiqlarning tarbiyaviy funksiyasi yuqori. Ayniqsa, bolalar uchun mo'ljallangan qo'shiqlarda axloqiy, estetik va madaniy qadriyatlar ifodasi bor.

Ular bola dunyoqarashini, didini, madaniy ongini shakllantiradi. Hozirgi zamon sharoitida xalq qo'shiqlari o'z yashash muhitini yangilab, zamonaviy san'at shakllariga uyg'unlashmoqda. Shu bilan birga, ularning asl mazmun va ruhini saqlash muhimligi dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda. Xalq qo'shiqlari nafaqat estetik tajriba, balki ijtimoiy-madaniy birdamlikni mustahkamlovchi kuchli kommunikativ vosita hisoblanadi. Ular jamoaviylik, birlik va madaniy muloqotni ta'minlaydi.

Xalq qo'shiqlarini yozma va raqamli shakllarda saqlash, kataloglashtirish ishlari kuchaytirilishi lozim. Bu borada muzeylar, milliy kutubxonalar, va raqamli madaniy platformalar hamkorlikda faoliyat yuritishi kerak. O'zbek xalq qo'shiqlari asosida zamonaviy musiqiy asarlar yaratish orqali yosh avlodda milliy qadriyatlarni ommalashtirishga erishish mumkin. Xalq qo'shiqlarini maktabgacha, umumta'lim va oliy ta'lim dasturlariga integratsiya qilish orqali ularning tarbiyaviy va estetik salohiyatidan foydalanish kerak. Folklor festivallari, xalq qo'shiqlari tanlovlari va ilmiy anjumanlar doimiy ravishda tashkil etilib, ularning xalq orasidagi mavqeini oshirishga xizmat qilishi lozim. Transmadaniy tadqiqotlar orqali o'zbek xalq qo'shiqlarining boshqa turkiy xalqlardagi o'xshash janrlari bilan qiyosiy o'rganilishi, ularning umumiy ildizlari va o'ziga xos jihatlari ochib berilishi muhim.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Алавия М. Ўзбек халқ қўшиқлари. – Тошкент: Фан, 1974. – 308 б.
2. Musaqulov A. O'zbek xalq lirikasi. – Toshkent: Fan, 2010. – 316 b.
3. Madayev O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2010. – 228 b.
4. Бойчечак. Болалар фолклори. Меҳнат қўшиқлари. Тўпловчилар О.Сафаров, К. Очилов. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1984. – 336 б.
5. Xojiyev A va boshqalar. Hozirgi o'zbek tili faol so'zlarining izohli lug'ati. – Toshkent: Sharq, 2001. – 258 b.